



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 47-51 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI:



ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Mamatqulov Boboraxim G'ofur o'g'li
Qarshi Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti
Marketing yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Gmail: mamatqulovbobaraxim@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlanirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganishga doir izlanishlar olib borilgan. Izlanishlar davomida "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini moliyalashtirish, "yashil energetika"ni barqaror rivojlanirish, ekologik siyosat hamda uni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmlari, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning ustuvor yo'nalishlari va xorij tajribasi, modellari, vazifalari, rivojlanish bosqichlari va ustuvor yo'nalishlarining mazmuni bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Yashil iqtisodiyot, iqtisodiyot strategiya, ekologiya, barqaror rivojlanish, ekologik texnologiyalar, innovatsiyalar, ekologik barqarorlik, ekologik muammolar, barqaror rivojlanish, atrof-muhit, qayta tiklanadigan energiya, "yashil" o'tish.

The Development of Green Economy in Uzbekistan: Key Directions and Prospects

Mamatqulov Boborakhim Gofurovich
Karshi State University, Faculty of Economics
First-year student, Marketing Department
Gmail: mamatqulovbobaraxim@gmail.com

Abstract. This article examines foreign experiences in shaping and developing the green economy in Uzbekistan. The research addresses issues related to financing the transition to a green economy, the sustainable development of green energy, environmental policy and its economic mechanisms, as well as the priority directions for transitioning to a green economy. It further explores foreign models, tasks, stages of development, and the content of these priority directions.

Keywords. Green economy, economic strategy, ecology, sustainable development, ecological technologies, innovations, environmental sustainability, environmental issues, renewable energy, green transition.

Развитие зеленой экономики в Узбекистане: основные направления и перспективы

Маматкулов Боборахим Гофурович
Каршинского Государственного Университета,
Экономический факультет
Студент первого курса, кафедра маркетинга
Gmail: mamatqulovbobaraxim@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматривается зарубежный опыт формирования и развития зеленой экономики в Узбекистане. Исследование охватывает вопросы финансирования перехода к зеленой экономике, устойчивое развитие зеленой энергетики, экологическую политику и ее экономические механизмы, а также приоритетные направления перехода к зеленой экономике. Особое внимание уделяется зарубежным моделям, задачам, этапам развития и содержанию приоритетных направлений.

Ключевые слова. Зеленая экономика, экономическая стратегия, экология, устойчивое развитие, экологические технологии, инновации, экологическая устойчивость, экологические проблемы, возобновляемая энергия, зеленый переход.

Kirish. Bugungi kunda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish, xorijiy mualliflarning klassik g'oyalariga ko'ra, barqaror iqtisodiy rivojlanishga yordam beradigan va aholi farovonligi va turmush sifatini yaxshilashga yordam beradigan iqtisodiy tizim sifatida tushunilishi kerak. Ekologik muvozanatni ta'minlash, insonning mavjud ekotizimga ta'sirini kamaytirish va ekologik yo'naltirilgan innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirish zarur. Biroq, hozirgi vaqtda yashil iqtisodiyot ko'plab mualliflar tomonidan iqtisodiy tizimning ma'lum bir "ideal holati" sifatida ko'rib chiqiladi, bu esa uning printsiplari va mexanizmlarini real sharoitlarda amalga oshirish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni qiyinlashtiradi.

Hozirda O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag'al guruhlariga maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'yemoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi. Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktyabr-da tasdiqlangan "2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish hamda tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish shu bilan bir qatorda moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxonalarining gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga zamонавий, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanishi ko'zda tutilmoqda.

Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytirilishi kutilmoqda, buning natijasida esa elektr transporti rivojlanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Yashil iqtisodiyot va ekologik taxnologiyalar hamda ularning rivojlanishiga doir fundamental masalalarni o'rganish bo'yicha xorijda, shu bilan bir qatorda yurtimizda ham salmoqli ishlar olib borilgan. Xususan, **Tim Jackson, Jeffrey Sachs, Elinor Ostrom, Robert Costanza, Robert Costanzalar** o'z asarlarida hamda vatandoshlarimizdan **Sh. Tursunov, Shuhrat Yuldashev, S. Ilyosov , A. Jo'rayev, M. Sodikov** kabi olimlar ko'plab tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, keyslarni tahlil qilish, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Yashil iqtisodiyot prinsiplari asosidabarqaror rivojlanishni ta'minlash to'g'risida mamlakatimiz va chet el olimlari, tadqiqotchilari tomonidan yozilgan adabiyotlar nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali hamda mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda ro'y beradi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish maqsadi va strategik vazifalari muayyan tamoyillarga asoslanishni taqozo etadi, albatta. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish tamoyillari mazkur iqtisodiyot qanday bo'lishi zarurligini belgilab beradi. "Yashil iqtisodiyot" tamoyillari "jigarrang iqtisodiyot" tamoyillariga nisbatan keng qamrovli hisoblanadi. Mamlakatimizda quyosh energiyasidan foydalanish sohasiga doir tadqiqotlar o'tgan asrning 1980-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Osiyo mintaqasida yagona va ilmiy ishlanmalari yurtimizdan tashqarida ham mashhur bo'lgan «Fizika-Quyosh» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining ilmiy-eksperimental markazi tashkil etilganidan keyin jadal rivojlana boshladi. O'zbekiston bugungi kunda ilmiy-texnik, eksperiment o'tkazadigan kadrlar bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lib, mamlakatimizda quyosh energiyasini loyihalashtirish va undan foydalanish bo'yicha katta hajmdagi konstruktorlik va texnologik ishlanmalar to'plagan. O'zbekistonda iste'mol qilinayotgan elektrenergiyasining katta qismi (87%) issiqlik elektrostantsiyalarida ishlab chiqariladi. Bunda energiya iste'moli tarkibining o'zagini neft va gaz resurslari tashkil etadi.. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston ekologik harakati deputatlar guruhi a'zolari quyi palatadagi barcha qo'mitalar tarkibidan o'rinn olib, qonun ijodkorligi hamda nazorat-tahlil faoliyatini amalga oshirmoqda. Prezident qarori bilan issiqxonalarini gazlarini kamaytirish, yashil energiya manbalarini ko'paytirish, energiya samaradorligini oshirish, 1 mln get targacha maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, yiliga 200 mln ko'chat ekish, o'rmonlarni kengaytirish, maishiy chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha rejalar tasdiqlandi Prezident Shavkat Mirziyoyev "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha choratadbirlar to'g'risida" qarorini imzoladi.

Quyidagi jadvalda "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni taminlash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan:

1-jadval

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari¹

| Bosqichlar | Yillar | Asosiy g'oyalar |
|------------|-----------|---|
| 1 | 1950-1960 | Iqtisodiyotning atrof-muhit va insonga salbiy ta'sirini anglab yetish |
| 2 | 1960-1970 | Inson uchun qulay atrof-muhit va tabiiy resurslarni saqlab qolish maqsadida tejamkor (ratsional) iqtisodiyotni shakllantirish |
| 3 | 1980-1990 | Iqtisodiy o'sish va sanoat rivojlanishining ekologik jihatdan moslashishi |
| 4 | 2000-2010 | “Erkin bozor”ning biosfera resurslarini uzoq muddatli davrda saqlab qolish va ijtimoiy adolat manfaatlarini himoya qilish |

O'zbekiston yashil iqtisodiyot uchun noyob imkoniyatlar va shart-sharoitlarga ega. Keng hudud, qulay geosiyosiy joylashuv, mavjud moliyaviy va tabiiy resurslar, bozorda tobora samarali va foydalanish mumkin bo'lgan yashil texnologiyalar taklifining o'sib borishi va boshqa omillar yangi imkoniyatlarni qo'llab quvvatlamoqda. Iqtisodiyotning yashil rivojlanish tamoyillarini qo'llash nuqtai nazaridan islohot talab qiladigan eng muhim segmentlari chiqindilarni boshqarish sektori, energetika sanoati va suv iste'moli sektoridir. Prezidentimiz tashabbusi bilan “yashil” iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Konsepsiada birinchi navbatda, asosan iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini isloh qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar ro'yxati keltirilgan. Mamlakat oldida turgan “yashil iqtisodiyot”ga o'tish bo'yicha asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: resurslardan (suv, yer, biologik va boshqalar) foydalanish va ularni boshqarish samaradorligini oshirish; mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish va yangilarini qurish; ekologik bosimni yumshatishning tejamkor usullari orqali aholi farovonligi va atrof-muhit sifatini yaxshilash; milliy xavfsizlikni, shu jumladan suv xavfsizligini takomillashtirish kabi vazifalar ko'rib chiqildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, “yashil” iqtisodiyotning iqtisodiy mexanizmlari barqaror rivojlanishni ta'minlashda o'z o'rniga ega. Milliy iqtisodiyotni “yashillashtirish” tabiiy resurslarni chuqur qayta ishslash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti miqdorini oshirishga, tarkibini diversifikatsiyalash va milliy kompaniyalarning tashqi bozoridagi raqobotdoshligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda uzoq muddatli istiqbolli “yashil iqtisodiyot”ga o'tish strategiyasida ham asosiy to'rtta ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib asosiy etibor energiya samaradorligini oshirishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'zlashtirishga, iqlim o'zgarishlari oqibatiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/docs/-4539502#-4541764>

¹ <https://stat.uz/uz/> sayti ma'lumotlartiga ko'ra muallif ishlansmasi

2. 2019-yil 4-oktabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" Iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori
3. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta barqaror yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 sonli Farmoni.
4. Yashil iqtisodiyot loyihasi: Devid Pirs, Anil Markandy va Edvard B. Barbier. Earthscan, London, Buyuk Britaniya, 1989. 192 bet
5. Meyliev, O. R. (2017). Nalogovye faktory ekonomicheskogo razvitiya regionov. Ekonomi va biznes: nazariya i amaliyot, (5), 161-163.
6. <https://stat.uz/uz/>
7. Toshev.N.J. Mintaqada turistik aglomeratsiyalar rivojlanishining ilmiy-uslubiy va nazariy jihatlari. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. ISSN 2181-502X Maxsus son-2. 2023.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

